



## FOREIGN ECONOMIC RELATIONS IN THE EARLY PERIOD OF INDEPENDENCE AND THEIR GROWTH STAGE

*Asror Allanazarovich Tursunov*

*Acting Professor, Department of History*

*University of Information Technologies and Management*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** independence, foreign economic relations, export-import, investments, economic reforms, global economy, integration, economic development, trade cooperation, market economy.

**Received:** 16.05.26

**Accepted:** 17.05.26

**Published:** 18.05.26

**Abstract:** This scientific article analyzes the formation and development stages of Uzbekistan's foreign economic relations during the early years of independence. It examines the main directions of new economic policy, expansion of international trade, attraction of foreign investments, and development of export-import operations. The study also highlights the country's integration into the global economic system, key forms of economic cooperation, and the outcomes of initial economic reforms. Furthermore, the stages of growth in foreign economic relations and their impact on the national economy are evaluated.

## MUSTAQILLIKNING DASTLABKI DAVRIDA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR VA UNING O'SISH BOSQICHI

*Asror Allanazarovich Tursunov*

*Tarix kafedrasi professori v.b*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** mustaqillik, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport-import, investitsiyalar, iqtisodiy islohotlar, jahon xo'jaligi, integratsiya, iqtisodiy rivojlanish, savdo hamkorligi, bozor iqtisodiyoti.

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil etiladi. Xususan, yangi iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksport-import

operatsiyalarining rivoji yoritiladi. Shuningdek, mamlakatning jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvi, iqtisodiy hamkorlikning asosiy shakllari hamda dastlabki islohotlarning natijalari ilmiy asosda baholanadi. Maqolada tashqi iqtisodiy aloqalarning o'sish bosqichlari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilinadi.

## ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИЕ СВЯЗИ В НАЧАЛЬНЫЙ ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ И ЭТАПЫ ИХ РАЗВИТИЯ

*Асрор Алланазарович Турсунов*

*Исполняющий обязанности профессора кафедры истории*

*Университет информационных технологий и менеджмента*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** независимость, внешнеэкономические связи, экспорт-импорт, инвестиции, экономические реформы, мировая экономика, интеграция, экономическое развитие, торговое сотрудничество, рыночная экономика.

**Аннотация:** В данной научной статье анализируются формирование и этапы развития внешнеэкономических связей Республики Узбекистан в начальный период независимости. Рассматриваются основные направления новой экономической политики, расширение международной торговли, привлечение иностранных инвестиций, а также развитие экспортно-импортных операций. Особое внимание уделяется процессу интеграции страны в мировую экономическую систему, формам экономического сотрудничества и результатам проводимых реформ. Также исследуются этапы роста внешнеэкономических связей и их влияние на национальную экономику.

**Kirish.** Zamonaviy xalqaro aloqalarda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikka sezilarli ta'qir qiluvchi omillardan biri – bu iqtisodiy omillardir. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tarixi chuqur ildizlarga ega bo'lib, u Markaziy Osiyo hududida qadimdan mavjud bo'lgan savdo-iqtisodiy munosabatlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu aloqalar, ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li doirasida faol rivojlanib, hududlar o'rtasida tovar almashinuvi, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarqalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

1991 yilda mustaqillikka erishilgandan so'ng, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Ilk yillarda iqtisodiy tizimlarni qayta qurish, milliy bozorlarni shakllantirish va tashqi savdo aloqalarini yo'lga qo'yish jarayonida ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyinchalik o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanib bordi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida ishlab chiqarish zanjirlarining uzilishi, iqtisodiy qiyinchiliklar va savdo aloqalarining izdan chiqishi har ikki mamlakatni o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga undadi. Qozog'iston shuningdek, resurslarning ko'pligi va foydali qazilmalarni qazib olish hajmi bo'yicha ham yetakchi hisoblanadi. O'zbekiston (gaz va oltin) va Turkmaniston (gaz) boy mineral bazaga ega, Qirg'iziston va Tojikiston esa oltin va uranga ega[1].

Shunga qaramay, mintaqaviy aloqalarni rivojlantirishga bo'lgan umumiy ehtiyoj bor edi. 1993 yili Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi. 1994 yil 10 yanvarda Qozog'iston birinchi Prezidenti N. Nazarboev va O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov yagona iqtisodiy hududni shakllantirish to'g'risida shartnoma imzolab, Markaziy Osiyo hamdo'stligiga poydevor qo'yishdi. Ushbu shartnoma MDH iqtisodiy ittifoqi tuzish to'g'risidagi shartnoma qoidalarini rivojlantirish, 1994–2000 yillarda O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasini iqtisodiy integratsiyalashni chuqurlashtirishga doir qo'shma dasturni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan [2]. Ushbu bitimdan maqsad 2000 yilga kelib tovarlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishiga erishish va kredit, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini uyg'unlashtirish edi. Ushbu yagona iqtisodiy makon to'g'risidagi shartnomaga Qirg'iziston ham qo'shildi[3]. 1994 yil 8 iyulda Davlatlararo Kengash, shartnomani imzolagan uchala davlat o'rtasida Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish bankini ta'sis etish to'g'risida Bitim[4] tuzildi.

**Muhokama va natijalar.** 1998 yilga kelib yagona iqtisodiy makon to'g'risidagi shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashishiga yanada kengroq imkon tug'ildi[5]. Biroq ushbu tashkilot faoliyati kutilgan natijalarga olib kelmadi. 2002 yili tashkilotga yangi turtki berish, integratsiyalashgan iqtisodiy makonni shakllantirish va tashqi siyosatni muvofiqashtirish uchun uni to'rt a'zo davlatlar Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti (MOHT)ga aylantirishdi[6]. MOHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlik mintaqaviy iqtisodiy qarorlar qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki boshqa davlatlarga unga qo'shilish imkonini beruvchi ochiqroq uyushmaga olib keldi. Lekin bu tashkilot ham muvaffaqiyatga erisha olmadi[7].

O'zbekistonning Qozog'iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992 yil 24 iyunda Turkiston shahrida O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida mustahkamlanib bordi. Ushbu hujjat Qozog'istonga O'zbekistonning birinchi Prezidenti rasmiy davlat tashrifi chog'ida N.Nazarbaev va I.Karimov tomonidan imzolangan. 1993 yil 10 noyabrda I.Karimov Almati shahriga tashrif buyurdi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston prezidentlari ikki mamlakat o‘rtasidagi integratsion aloqalar va iqtisodiy siyosatga doir masalalarni muhokama qildilar. O‘zaro investitsiyalarni amalga oshirish yo‘llari va usullari, qo‘shma korxonalar tashkil etish hamda yuqori texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar hozirda mustahkam shartnomaviy asosga ega. Bu davrda 200 ga yaqin hujjat, jumladan, “Abadiy do‘stlik” shartnomasi (1998 yil) va Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma (2013 yil) imzolanib, iqtisodiy integratsiyaning huquqiy asosi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomada siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport va kommunikatsiyalar, suv-energetika, ekologik, madaniy-gumanitar, harbiy-texnik va boshqa sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikning asosiy tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlari mustahkamlangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida qator asosiy hujjatlar – 1995 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Yagona iqtisodiy makonni yaratish to‘g‘risidagi shartnoma, 1997 yil 2 fevraldagi investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risidagi kelishuv, 2006–2010 yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2007–2016 yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi hamda bojxona, bank sohasi va boshqa yo‘nalishlardagi bir qator hujjatlar imzolangan[8].

2001–2002 yillarda delimitatsiya, 2023 yilda demarkatsiya yakunlandi. Bu iqtisodiy hamkorlikning asosi bo‘ldi. Ikki davlat Transkaspий xalqaro transport yo‘nalishi (O‘rta koridor) va boshqa yo‘llarni rivojlantirishda hamkorlik qiladi, lekin ba‘zi tranzit yo‘nalishlarda raqobat ham mavjud[9].

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar va savdo hajmi 1990-yillardan 2000-yillarning o‘rtalarigacha bir qator ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablarga ko‘ra nisbatan past bo‘lgan. Xususan, 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab “savdo urushi” “transport urushi” bilan birga kechdi. O‘zbekiston va Qirg‘izistonning temir yo‘llariga qarzi (9,5 million dollar) va qo‘shnilarning valyutada to‘lashni istamasligini (O‘zbekiston qarzni qurilish materiallari va dizel yoqilg‘isi bilan to‘lashni taklif qilgan, Qirg‘iziston esa elektr energiyasini taklif qilgan) hisobga olgan holda, Qozog‘iston 1999 yil mayda qarz to‘lanmaguncha ushbu respublikalardan o‘z hududi orqali yo‘lovchi poezdlari qatnovini to‘xtatdi (O‘zbekiston, shuningdek, Qozog‘istondan gaz ta‘minoti uchun valyutada to‘lashni va to‘lov amalga oshirilmagan taqdirda ta‘minotni to‘xtatishni talab qildi)[10].

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tovar aylanmasi hajmi 2000-yillarning boshlarida ham past bo‘lgan. 2000-2002 yillar davomida O‘zbekistonning Qozog‘iston umumiy tovar

aylanmasidagi ulushi 4.3% dan 1.0%<sup>22</sup> ga pasayib, bu davrda ikkala davlat bojxona, soliq, antidemping siyosati va chegaraoldi savdo sohalorida haligacha umumiy kelishuvga erisha olmagan edi[11].

Bu holat, albatta, Qozog‘iston ishbilarmon doiralarining kapital qo‘yish imkoniyatiga to‘sqinlik qilgan. Xorijiy davlatlar ishtirokidagi 2005 yillarda O‘zbekiston korxonalarini orasida Qozog‘iston korxonalarini atigi 1,5% ni tashkil qilgan (taxminan 50 ta korxonalar)[12]. Aslida Qozog‘iston biznesining qo‘shni davlatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda Qozog‘iston uchun eng katta jozibadorlik O‘zbekiston bozoriga tegishli. Xuddi shu xolat O‘zbekiston uchun ham Qozog‘iston keng imkoniyatlarni ochadi.

2002 yil 1 mart kuni MDHning Olmaota shahrida o‘tgan norasmiy sammitida Rossiya, Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston prezidentlari Yevroosiyo gaz alyansini yaratishga tayyorgarlikni boshlashga kelishib olgan edilar. Uning maqsadlari sifatida Markaziy Osiyodan gaz eksportiga oid siyosatni muvofiqlashtirish, geologiya-qidiruv, qazib olish, tozalash va qayta ishlash sohalorida investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish belgilangan edi.

2005 yildan boshlab O‘zbekiston va Qozog‘iston kapitali ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli ortdi. Umuman olganda, har ikki tomon o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjudligini e‘tirof etmoqda[14]. 2008 yil aprelda O‘zbekiston Prezidentining Ostonaga tashrifi davomida bu borada yutuqlarga erishildi. Xususan, Islom Karimov va Nursulton Nazarboev O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida erkin savdo zonasini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar va keyingi yillarda mamlakatlar o‘rtasidagi tashqi savdo sezilarli darajada oshdi. 2010-yillardan so‘ng Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining kuchayishi esa bu aloqalarni yanada yuqori bosqichga olib chiqdi.

2012 yilda tovar aylanmasi 2,5 mlrd dollardan oshdi, 2015 yilda esa 3,2 mlrd dollarga yetdi. Qozog‘istondan O‘zbekistonga eksport 1,344 milliard dollarni, O‘zbekistondan Qozog‘istonga import esa 817 million dollarni tashkil etdi[15]. Qozog‘iston O‘zbekistonga neft, metallar, un va yog‘-moy mahsulotlarini eksport qilgan, O‘zbekiston esa transport vositalari qismlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazgan bo‘lsa, O‘zbekiston Qozog‘istonga yengil va yuk mashinalari, avtobuslar, qishloq xo‘jaligi texnikasi, tayyor to‘qimachilik, elektrotexnika va yengil sanoat mahsulotlari, qurilish materiallari, shisha va boshqa tovarlarni eksport qilish uchun katta zaxiralarga ega. Mamlakatlar qishloq xo‘jaligi, yengil va og‘ir sanoat, qurilish, mashinasozlik, transport kommunikatsiyalari, neft va gaz sanoati va boshqa sohalarda hamkorlikni kengaytirish uchun katta salohiyatga ega[16].

2014 yil 24-25 noyabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Qozog‘iston Prezidentining taklifiga ko‘ra Qozog‘iston Respublikasiga rasmiy tashrif buyurdi. Uchrashuv davomida ikki mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik kabi keng ko‘lamli masalalar bo‘yicha hamkorlikni faollashtirishga o‘zaro qiziqish bildirildi. Xususan, tomonlar O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida 2007-2016 yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi qoidalarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, shuningdek, transport va kommunikatsiya sohasida o‘zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish hamda ikki mamlakatning ulkan tranzit salohiyatidan foydalanish zarurligini yana bir bor tasdiqladilar.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha qo‘shma hukumatlararo komissiya ikki tomonlama sheriklikning ustuvor yo‘nalishlarida amaliy hamkorlikni muvofiqlashtirish va faollashtirish uchun faoliyat yuritadi. Ushbu komissiyaning 15-yig‘ilishi 2016 yil martda Ostonada bo‘lib o‘tdi. Qozog‘istonda 151 ta korxonalar, O‘zbekistonda esa 206 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularda ikki respublikadan kelgan ishbiarmonlar, jumladan, 170 dan ortiq qo‘shma korxonalar ishtirok etgan[16].

Qozog‘istonda esa o‘zbek kapitali ishtirokida 715 ta kichik va o‘rta korxonalar mavjud. Ularda qayta ishlash sanoati, savdo, oziq-ovqat ishlab chiqarish, qurilish materiallari, mebel, shisha buyumlar ishlab chiqarish, ko‘chmas mulk operatsiyalari va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritadi. O‘zbekiston va Qozog‘iston ko‘p tomonlama hamkorlik doirasida ham muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqda. Har ikki davlat SVMDA, ShHT, YevrAzES, MDH ATS hamda TRASEKA va Shimol–Janub transport yo‘laklarining ishtirokchilari hisoblanadi[17].

Transport va tranzit ham ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Asosiy masalalardan biri tranzit va yuk tashish uchun o‘zaro tarif va tarifsiz imtiyozlarni taqdim etishdir, masalan, O‘zbekistondan Qozog‘iston orqali Rossiyaga yoki Qozog‘istondan O‘zbekiston orqali turli Osiyo mamlakatlariga. 2015 yilda O‘zbekiston yuklarining Qozog‘iston orqali tranziti 2 million tonnadan oshdi va Qozog‘iston yuklarining O‘zbekiston orqali tranziti 3 million tonnadan oshdi.

**Xulosa qilib aytganda,** mustaqillikning dastlabki davrida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalar transformatsiya xarakteriga ega bo‘lib, markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida tizimli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Sovet davrida shakllangan tarmoqlararo kooperatsiya va infratuzilmaviy bog‘liqlik qisqa muddatda izdan chiqqan bo‘lsa-da, geoiqtisodiy yaqinlik va o‘zaro resurs to‘ldiruvchanlik ikki davlatni iqtisodiy hamkorlikni saqlab qolish va qayta tiklashga undadi.

Shunday qilib, tadqiqot davomida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy munosabatlarning postsovet transformatsiyasi sharoitidagi evolyusiyasi kompleks tahlil qilinib, ularning rivoji institutsional, geoiqtisodiy va siyosiy omillar o‘zaro ta‘sirida kechgan ko‘p bosqichli jarayon ekani, xususan, 1990-yillarda kuzatilgan dezintegratsiya jarayonlarining keyinchalik moslashuv va qayta integratsiya bosqichlari bilan almashinishi, sovet davridan meros bo‘lgan tarmoqlararo kooperatsiya va infratuzilmaviy bog‘liqlikning hamkorlik barqarorligini ta‘minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lishi, shuningdek, 2000-yillardan boshlab shartnomaviy-huquqiy bazaning mustahkamlanishi va transport-logistika tizimlarining rivojlanishi orqali iqtisodiy aloqalarning barqaror o‘sish traektoriyasiga o‘tgani hamda ikki davlat iqtisodiyotlarining o‘zaro to‘ldiruvchanligi mintaqaviy integratsiyaning muhim drayveri sifatida shakllangani haqida ilmiy xulosaga kelindi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Шинтимирова Б.Г. Из опыта экономического сотрудничества Казахстана и стран Центральной Азии // Нефтегазовые технологии и экологическая безопасность. 2006. №4. – С. 253.
2. Қозоғистон Республикаси Президенти Н.А. Назарбоевнинг Ўзбекистон Республикасига ташрифи якуни тўғрисида Қўшма Ахборот // Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг нашри. Хабарнома. – №13 14. – 1994. – Б. 117.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Қирғизистон Республикасига расмий сафари якуни ҳақида Қўшма Ахборот // Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг нашри. Хабарнома. – №13 14. – 1994. – Б. 120.
4. Марказий Осиё ҳамкорлик ва ривожланиш банкни таъсис этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси, Қозоғистон Республикаси ва Қирғизистон Республикаси ўртасида Битим // Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг нашри. Хабарнома. – №15 16. – 1994. – Б. 114 115; Қозоғистон Республикаси, Қирғизистон Республикаси ва Ўзбекистон Республикаси Давлат бошлиқларининг Баёоти // Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг нашри. Хабарнома. – №15 16. – 1994. – Б. 117 118.
5. Қозоғистон Республикаси, Қирғизистон Республикаси, Тожикистон Республикаси ва Ўзбекистон Республикаси давлат раҳбарларининг минтақавий интеграцияни янада чуқурлаштириш тўғрисидаги баёоти // Ўзбекистон Республикаси Президенти хабарномаси. – 1998 йил 1-сон. – Б. 55, 57.
6. Марказий Осиё: кеча, бугун, эртага // Халқ сўзи, 2001 йил 29 декабр; Договор между Республикой Казахстан, Кыргызской Республикой, Республикой Таджикистан и Республикой Узбекистан об учреждении организации «Центрально

Азиатское Сотрудничество» // Ўзбекистон Республикаси Президенти хабарномаси. – 2002 йил 1-сон. – С. 114-118.

7. Ларуэль М., Пейруз С. Региональные организации в Центральной Азии: характеристики взаимодействий, дилеммы эффективности // Доклад. – 2013. – № 10. – Бишкек. – С. 8. <https://www.ucentralasia.org/Content/downloads/UCA-IPPA-WP-10-RegionalOrganizations-Rus.pdf>

8. Кожамжарова Ж. Ж. Основные направления двухстороннего сотрудничества Казахстана и Узбекистана (1991-2006 гг.) // Вестник национальной Академии РК. - 2006. - №5. - С. 93-96.

9. Nargiza Umarova. Competition VS. Partnership: Uzbekistan-Kazakhstan Relations in the Field of Transport and Transit // <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13817-competition-vs-partnership-uzbekistan-kazakhstan-relations-in-the-field-of-transport-and-transit.html>

10. Экономические аспекты интеграционных процессов: опыт Европейского Союза. – Алматы, 2003. – С. 51.

11. Хуррамов М.К. 1991 – 2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar evolyutsiyasi. Tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. – Б. 17.

12. Казахстан и Узбекистан: точки конфликта // Евразийский центр полит. исследований. – Казахстан. – 2005. – 26 апреля

13. Ткаченко С.Л. ГАЗОВЫЙ СОЮЗ РОССИИ, КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА: РЕГИОНАЛЬНЫЙ И ЕВРАЗИЙСКИЙ КОНТЕКСТ // Известия СПбГЭУ. 2024. №2 (146). – С.8 (7-12)

14. Кожамжарова Ж. Сотрудничество Казахстана и Узбекистана в современных условиях: исторический аспект (1991-2008 гг.). Автореф. ... канд. истор. наук. - Алматы, 2010. – С.17.

15. Ханова И.Е. Казахстан - Узбекистан: история сотрудничества и перспективы взаимодействия // Вестник РГГУ. Серия: Политология. История. Международные отношения. 2017. №4-1 (10). – С. 83; Рахимов М. Взаимоотношения Узбекистана и Казахстана: основные тенденции и фактор устойчивости Центральной Азии // <https://www.caa-network.org/archives/6994>

16. Рахимов М. Взаимоотношения Узбекистана и Казахстана: основные тенденции и фактор устойчивости Центральной Азии // <https://www.caa-network.org/archives/6994>

17. Сайт комитета статистики СНГ// <http://www.cisstat.com>.